

Birinchi dan, fond birjalari va savdo platformalari kapital bozorining markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Ushbu tuzilmalar qimmatli qog'ozlarning birlamchi va ikkilamchi bozorlarda muomalada bo'lishini ta'minlash bilan birga, kapitalni investor va emitentlar o'rtasida erkin harakatlanishiga xizmat qiladi. Ikkinchi dan, markaziy depozitariy va kliring xizmatlari kapital bozorida moliyaviy operatsiyalarning texnik va institutsional xavfsizligini ta'minlovchi muhim infratuzilma elementi hisoblanadi. Markaziy depozitariy qimmatli qog'ozlar hisobini yuritish, egalik huquqlarini ro'yxatdan o'tkazish va ularning o'tkazilishini nazorat qilish funksiyalarini bajaradi. Uchinchi dan, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi davlat organlari kapital bozorining barqaror va adolatli faoliyat yuritishini ta'minlovchi asosiy nazorat mexanizmi hisoblanadi. Ushbu organlar bozor ishtirokchilarining faoliyatini litsenziyalash, qimmatli qog'ozlar emissiyasini ro'yxatdan o'tkazish, investorlar huquqlarini himoya qilish hamda bozor manipulyatsiyalarining oldini olish vazifalarini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *European Central Bank. Financial Integration in Europe. ECB Occasional Paper, 2025.*
2. *Хоминич И.П. Управление финансовыми рисками: учебник и практикум для вузов/ - 3-е изд., перераб. и доп. - Москва: Издательство Юрайт, 2024. - 569 с.*
3. *Lerner J. Venture capital and financing of innovation projects. Journal of Economic Perspectives. 2020-yil, №4.*
4. *Feng J. Digital inclusive finance and technological innovation development. Technological Forecasting and Social Change. 2025-yil, №1.*
5. *Jumayev I.B. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirisha xalqaro moliya institutlarining ahamiyati. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723.*
6. *Joseba Martinez, Thomas Philippon, Markus Sihvonen, Does a currency union need a capital market union? Journal of International Economics, Volume 139, 2022.*

TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENTINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Xamdamova Gulxayo Muzaffarjon qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Bugungi kunda tijorat banklarida menejmentni to'g'ri tashkil qilish banklar faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarini yanada oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari banklarda boshqaruvni to'g'ri yo'lga qo'yish orqali, kelajakda banklararo raqobatbardoshlikni oshirishga erishish mumkin. Hozirgi kunda bank tizimida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida shu kunga qadar bank tizimida ikki pog'onali bank tizimi shakllantirildi va banklarning amalga oshirayotgan operatsiyalari xalqaro darajaga ko'tarilgan. Tijorat bank menejmenti xavfni minimallashtirish va me'yoriy hujjatlarga rioya qilishni ta'minlash bilan birga foydani ko'paytirishga qaratilgan bir qator strategiya va amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Bank tizimi har qanday mamlakat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tijorat banklari iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlaydi, investitsiyalarni rag'batlantiradi hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, bank faoliyati turli xil moliyaviy risklar bilan chambarchas bog'liqdir.

Global moliya bozorlarida yuz berayotgan o'zgarishlar, raqamli texnologiyalar rivoji va moliyaviy operatsiyalar hajmining ortishi bank tizimida risklarni samarali boshqarish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Tijorat banklarida risk-menejment tizimi bank faoliyatining barqarorligi va moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda bank tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarni joriy etish hamda banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda risk-menejment tizimini takomillashtirish bank faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tijorat banklari faoliyatida turli xil risk turlari mavjud bo'lib, ular bankning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Fikrimizcha, bank tizimida eng ko'p uchraydigan risk turlari quyidagilardan iborat: birinchidan, kredit riski bank faoliyatidagi asosiy risklardan biri hisoblanadi. Kredit riski qarz oluvchining kredit majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasligi natijasida yuzaga keladi. Ikkinchidan, likvidlik riski bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish uchun yetarli likvid mablag'lar mavjud bo'lmagan holatda yuzaga keladi. Uchinchidan, bozor riski valyuta kurslari, foiz stavkalari va boshqa bozor omillarining o'zgarishi natijasida bank aktivlari qiymatining kamayishi bilan bog'liq. To'rtinchidan, operatsion risk bank faoliyatida ichki jarayonlar, texnik nosozliklar yoki inson omili bilan bog'liq xatolar natijasida yuzaga keladi.

O'zbekistonda tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Banklarda risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish bo'yicha ichki tizimlar joriy etilgan. Shuningdek, xalqaro bank amaliyotida keng qo'llaniladigan Basel standartlari asosida kapital yetarliligi va risklarni boshqarish mexanizmlari takomillashtirilmoqda.

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bank tizimi so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Xususan, bank tizimi aktivlari hajmi 2024-yilda 769 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 866 trln. so'mga, 2026-yil boshiga kelib esa 924 trln. so'mga yetgan. Shu bilan birga, bank kredit portfeli hajmi 533 trln so'mga yaqinlashgan bo'lib, depozitlar hajmi esa 355 trln so'mdan oshgan¹⁴¹. Mazkur ko'rsatkichlar bank tizimining iqtisodiyotdagi rolini tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Bank aktivlari, kredit portfeli va depozitlar hajmining ortishi moliyaviy operatsiyalar ko'lamini kengaytirib, tijorat banklari faoliyatida kredit, likvidlik, bozor va operatsion risklarning ham ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda risklarni samarali boshqarish tizimi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash kerakki, sohada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga qaramay, ayrim tijorat banklarida risk-menejment tizimi hali to'liq darajada rivojlanmaganligi kuzatiladi. Xususan, risklarni baholashning zamonaviy modellaridan yetarli darajada foydalanilmayotgani hamda raqamli risk monitoring tizimlari to'liq joriy etilmaganligi ushbu sohadagi muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur nuqtai nazarlarga asoslangan holda, tijorat banklarida risk-menejment tizimini takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

Birinchidan, banklarda risklarni boshqarishning zamonaviy xalqaro standartlarini keng joriy etish zarur. Xususan, Basel III talablarini to'liq tatbiq etish banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

¹⁴¹ <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats>

Ikkinchidan, raqamli risk monitoring tizimlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) asosida risklarni tahlil qilish bank faoliyatidagi xavflarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

Uchinchidan, tijorat banklarida stress-test va risklarni prognozlash mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Bu banklarning iqtisodiy inqiroz yoki bozor tebranishlari sharoitida barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

To'rtinchidan, bank xodimlarining risk-menejment bo'yicha malakasini oshirish muhim omil hisoblanadi. Xalqaro tajriba asosida mutaxassislarni tayyorlash banklarda risklarni boshqarish samaradorligini oshiradi.

Beshinchidan, banklarda ichki audit va nazorat tizimini kuchaytirish orqali operatsion risklarni kamaytirish mumkin.

Umuman olganda, tijorat banklarida risk-menejment tizimi bank faoliyatining barqarorligi va moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank tizimida kredit, likvidlik, bozor va operatsion risklarni samarali boshqarish banklarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda bank tizimida risk-menejment tizimini takomillashtirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq xalqaro standartlarni keng joriy etish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va risk monitoring tizimini rivojlantirish ushbu jarayonning samaradorligini yanada oshiradi. Kelgusida tijorat banklarida risk-menejment tizimini takomillashtirish moliya tizimining barqarorligini mustahkamlashga, bank sektorining raqobatbardoshligini oshirishga hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdumalikov A. *O'zbekiston tijorat banklarida risk menejment tizimini rivojlantirish istiqbollari. Universal Journal of Academic and Multidisciplinary Research. 2025-yil, №4.*

2. Karimov A.A. *O'zbekiston tijorat banklarida risk-menejment amaliyotini takomillashtirish. Worldly Knowledge ilmiy jurnali. 2024-yil, №7.*

3. Saunders A., Cornett M.M. *Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. – New York: McGraw-Hill Education, 2020.*

4. Muxamedov M.X. *O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanish. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali. 2025-yil, №3.*

5. Hull J. *Risk Management and Financial Institutions. – New Jersey: Wiley, 2022.*

INSTITUTSIONAL INVESTORLARNI JALB QILISH VA XIZMAT KO'RSATISH SEKTORINI RIVOJLANTIRISH ORQALI MOLIYA BOZORLARINING BARQARORLIGINI TA'MINLASH

Ismailova Ma'mura Eldorovna

"Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage

"Xalqaro biznes va kreativ-iqtisodiyot" kafedrasi assistent-o'qituvchi

Annotatsiya. *Institutsional darajadagi investorlarni jalb qilish, xizmat ko'rsatish sektorining ayniqsa moliyaviy xizmatlar sohasining — kengayishi hamda moliya*